

**NUROTA DAVLAT QO‘RIQXONASIDA UCHRAYDIGAN O‘ZBEKISTON
RESPUBLIKASI “QIZIL KITOBI”GA KIRITILGAN TULIPA L.
TURKUMI TURLARI**

Anvarova Orzigul Anvar qizi

biologiya yo‘nalishi 1-bosqich magistranti,

Avalbayev Olimjon Narkuziyevich

biologiya va uni o‘qitish metodikasi kafedrasida dotsenti

Jizzax davlat pedagogika instituti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Nurota davlat qo‘riqxonasida uchraydigan O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”ga kiritilgan Tulipa L. turkumi turlari haqida ma’lumot keltirilgan.

Kalit so‘zlar: davlat qo‘riqxonasi, tur, turkum, noyob, kamyoblik darajasi.

АННОТАЦИЯ

В данной статье приведены сведения о видах Tulipa L., занесенных в Красную книгу Республики Узбекистан, встречающихся в Нуратинском государственном заповеднике.

Ключевые слова: государственный заповедник, вид, род, редчайшие, статус.

ANNOTATION

This article provides information about the species of Tulipa L., listed in the Red Book of the Republic of Uzbekistan, found in the Nurata State Reserve.

Keywords: state reserve, species, genus, status.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Tulipa L. turkumining 26 turi o‘sadi, shundan 18 turi O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi” ga kiritilgan (2009), 4 turi

eng noyob (kamyoblik darajasi-1) hisoblanadi. Nurota davlat qo‘riqxonasi hududida Tulipa L. turkumining 7 turi: Tulipa korolkowii Regel., Tulipa affinis Z. Botsch., Tulipa micheliana Hoog., Tulipa turkestanika Regel., Tulipa lehmanniana Merclin., Tulipa Sogdiana Bunge., Tulipa buhseana Boiss. uchrab, shundan 3 turi cho‘l hududida tarqalgan. Lemann lolasi - Tulipa lehmanniana Merckl. Kamyoblik darajasi 3. O‘zbekistondagi juda kamyob tur. Qisqacha tavsifi. Bo‘yi 15-25 sm orasidagi ko‘p yillik piyozli o‘t. Piyoz tuxumsimon, diametrik 1,5-4.0 sm. Qobig‘i charmsimon, qora - qo‘ng‘ir, yer yuzasigacha davom etadi. Barglari 3-4 ta, egri bugri. Guli yakka, sariq, to‘q sariq yoki qizil, tubi qora, jigarrang dog‘li. Changchi iplari, changdonlari sariq. Mart aprel oylarida gullab, may-iyunda mevasi yetiladi. Tarqalishi. Jizzax, Buxoro, Navoiy viloyatlari: Nurota tizmasi; Qizilqumda; Konimex cho‘lida, Tomdi va Darvoza tog‘larida tarqalgan. Qozog‘iston, Turkmaniston hamda Tojikistonda uchraydi. O‘shish sharoiti, Qoldiq tog‘larda, qumli tosh-shag‘alli yonbag‘irlarda, ola jinlari yer yuziga chiqib qolgan joylarda o‘sadi. Soni. Yakka-yakka va kichik guruhlar holda uchraydi.

Ko‘payishi. Urug‘idan va piyozidan ko‘payadi. O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari. Gullari ko‘plab terib olinishi va chorva mollarining boqilishi sababli qisqarib bormoqda. Madaniylashtirilishi. O‘zbekiston Respublikasi FA Botanika bog‘ida va Xo‘jand Botanika bog‘ida 1956 yildan buyon ekib o‘stiriladi.

Tulipa korolkowii Regel – Korolkov lolasi Kamyoblik darajasi 2. Janubi-g‘arbiy Tyanshan va Pomir-Oloydagi areali ajralgan, kamyob o‘simlik. Qisqacha tavsifi. Bo‘yi 10-20 sm orasidagi ko‘p yillik piyozli o‘t. Piyoz tuxumsimon, diametrik 2,5 sm qobig‘i ichki tomonining yuqori qismi sertuk. Barglari 3 ta, egri-bugri. Guli yakka, qizil, tubi qora. Changchi iplarining pastki qismi qora, yuqori qismi esa qizil. Ba‘zan changchi iplari qora yoki qizil. Changdoni sariq. Mart-aprel oylarida gullab, iyun-iyul oylarida mevasi yetiladi. Tarqalishi. Jizzax, Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari: Qurama (Abjassoy, Kendirdavon), Nurota, Ko‘xitang, Boysun, Bobotog‘da, Turkiston, Zarafshon, Xisor tizmalarida tarqalgan; Qozog‘iston va Tojikistonda ham uchraydi.

O‘shish sharoiti. Qoldiq tog‘larda qumli tosh-shag‘alli yonbag‘irlarda, ola jinslari yer yuzasiga chiqib qolgan joylarda o‘radi. Soni. Tabiatda to‘p-to‘p bo‘lib va yakka-yakka holda tarqalgan. Ko‘payish. Urug‘idan va piyozidan ko‘payadi. O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari. Gullari uzib va piyozlari qazib olinishi va chorva mollarining boqilishi sababli qisqarib bormoqda. Madaniylashtirilishi. O‘zbekiston Respublikasi FA Botanika bog‘ida va Xo‘jand Botanika bog‘ida 1956 yildan buyon ekib o‘stiriladi. Muhofaza choralari. Tabiatda o‘tib turgan turlarini nazorat ostiga olish va ko‘proq ma‘daniylashtirishga e‘tibor berish kerak.

Tulipa affinis Z. Botsch. – Qardoshli lola Kamyoblik darajasi 2. Shimoliy Pomir-Oloydagi kamyob, endem o‘simlik. Qisqacha tavsifi. Bo‘yi 15-25 sm oralig‘idagi ko‘p yillik piyozli o‘t. Piyoz tuxumsimon, diametrik 2-4 sm. Qobig‘i qog‘ozsimon, uzun, to‘q-qo‘ng‘ir rangli. Barglari 3 ta, ko‘kintir, sal egri-bugri. Guli yakka, qizil, tubi qora, och sariq xoshiyali. Changchi ipi qora, changdonlari bilan birikkan joyi oq. Changdoni qora binafsha rang. Mart-aprel oylarida gullab, iyun-iyuldaa mevasi yetiladi. Tarqalishi. Jizzax, Turkiston (Zomin davlat qo‘riqxonasining atrofi) va Nurota tizmasi (Qo‘ytosh tog‘i) da tarqalgan; Qirg‘iziston va Tojikistonda ham uchraydi. O‘shish sharoiti. Archazorlardagi mayda zarra tuproqli va toshli yon qoldiq tog‘larda, qumli tosh-shag‘alli yonbag‘irlarda o‘radi.

Soni. Yakka-yakka holda tarqalgan. Ko‘payishi. Urug‘idan va piyozidan ko‘payadi. O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari. Gullari ko‘plab terilishi va chorva mollarining boqilishi sababli qisqarib bormoqda. Madaniylashtirilishi. O‘zbekiston Respublikasi FA Botanika bog‘ida 1957yildan buyon ekib o‘stiriladi. Muhofaza choralari. Zomin va Nurota qo‘riqxonalarida muhofaza qilinadi.

Tulipa micheliana Hoog. - Mixel lola Kamyoblik darajasi 2. G‘arbiy Pomir-Oloydagi kamyob ketgan tur. Qisqacha tavsifi. Bo‘yi 20-30 sm oralig‘idagi ko‘p yillik piyozli o‘t. Piyoz tuxumsimon, qora-qo‘ng‘ir charimsimon qobig‘ining ichki tomoni yotiq tuklar bilan qoplangan, diametrik 10 sm. Barglari 3-4 ta, yo‘l-yo‘l binafsha dog‘li. Guli yakka, qizil rangdan to‘q pushti ranggacha, o‘ziga xos qadahsimon shaklda, gulining tubi qora, sariq gardishli, ba‘zan gardishsiz. Changchi iplari qora,

changdonlari binafsha rangda, baʼzan sariq. Mart-aprel oylarida gullab, mayiyunda mevasi yetiladi. Tarqalishi. Nurota, Zarafshon, Koʻhitang, Hisor tizmalarida tarqalgan, (Navoiy, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari), Tojikiston va Turkmanistonda ham uchraydi. Oʻsish sharoiti. Togʻ oldi tekisliklari va adirlardagi toshli va oz tuproqli yonbagʻirlarda oʻsadi. Soni. Kam yakka holda tarqalgan. Nurota tizmasining togʻ oldi tekisliklarida bir gektar maydonda tuplar soni bir nechtadan 100-200 donagacha yetadi. Adir qismida kamroq. Nurota tizmasining Ustuksoy yuqorilarida (1600 m) ham oʻsish joyi maʼlum.

Koʻpayishi. Urugʻidan va piyozidan koʻpayadi. Oʻsimlik soni va arealining oʻzgarish sabablari. Gullari koʻplab terilishi va chorva mollarining boqilishi sababli qisqarib bormoqda. Madaniylashtirilishi. Oʻzbekiston Respublikasi FA Botanika bogʻida 1956yildan buyon ekib oʻstiriladi. Muhofaza choralari. Tabiatda oʻsib turgan joylari qatʼiy nazorat ostiga olinishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Oʻzbekiston Respublikasi “Qizil kitobi” -T. “FAN” 1983.
2. Oʻzbekiston Respublikasi “Qizil kitobi” -T. “FAN” 1984.
3. Oʻzbekiston Respublikasi “Qizil kitobi” -T. “CHinor ENK”. 1998.
4. Oʻzbekiston Respublikasi “Qizil kitobi” T. “CHinor ENK”. 2006.
5. Oʻzbekiston Respublikasi “Qizil kitobi” T. 1-jild “CHinor ENK”. 2009.